IV. INVESTITSIYALAR VA QURILISH

2022- yil yanvar-dekabr oylarida viloyatning asosiy kapitalini ko‘paytirishga 34 954,7 mlrd. so‘m miqdorida investitsiyalar o‘zlashtirilib, o‘sish sur’ati 108,2 %ni tashkil qildi. Asosiy kapitalga kiritilgan jami investitsiyalarning 11 514,0 mlrd. so‘mi xorijiy investitsiya va kreditlar hisobiga to‘g‘ri keldi. Aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida 11 784,3 ming so‘mni tashkil etdi.

2022- yil yanvar-dekabr oylarida jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning deyarli yarmidan ko‘p ulushi, ya’ni 50,7 foizi viloyatning 5 ta hududi hissasiga, jumladan, Olmaliq shahri (27,5 %), Bekobod shahri (9,7 %), Qibray tumani (8,0 %), Chirchiq shahri (6,3 %) va Zangiota tumani (5,6 %) hisobiga to‘g‘ri keldi.

2022- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi *(mlrd. so‘m)*



2022- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar o‘sish sur’atlari *(%da)*



Ayrim hududlarda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi. Jumladan, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan Bekobod shahrida – 3,0 m., Bo‘ka tumanida – 2,5 m., Quyi Chirchiq tumanida – 2,3 m., Ohangaron tumanida – 164,9 %, Yangiyo‘l shahrida – 156,6 %, Toshkent tumanida – 150,0 % o‘sish kuzatildi.

2022- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar miqdori
(ming so‘mda, %da)



Hududlar kesimida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan investitsiyalar hajmining yuqori ko‘rsatkichlari Ohangaron tumanida – 16 275,9 ming so‘m, Qibray tumanida – 16 247,7 ming so‘m, Quyi Chirchiq tumanida – 14 070,5 ming so‘m, Bo‘stonliq tumanida – 8 215,3 ming so‘mni tashkil etdi.

Aksincha, past ko‘rsatkich Angren shahrida – 633,7 ming so‘mni va Yangiyo’l shahrida – 551,2 ming so‘mni tashkil etdi.

Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi

	mlrd. so‘m	*o‘sish sur’ati, %*	*yakunga nisbatan %*
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	**34 954,7**	**108,2**	**100,0**
shu jumladan:			
Markazlashgan investitsiyalar:	**5 513,1**	**111,8**	**15,8**
budjet mablag‘lari	2 099,7	78,7	6,0
O‘zR Moliya vazirligi huzuridagi suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish jamg‘armasi	171,0	80,7	0,5
Tiklanish va taraqqiyot fondi mablag‘lari	1 895,1	1,9 m.	5,4
Hukumat kafolati ostida chet el kreditlari	1 347,3	71,7	3,9
Markazlashmagan investitsiyalar	**29441,6**	**107,5**	**84,2**
korxonalarning o‘z mablag‘lari	13 740,7	116,3	39,3
tijorat bank kreditlari va boshqa tashkilotlar qarz mablag‘lari	2 755,0	78,9	7,9
to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar	3 981,1	58,9	11,4
boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	139,2	30,2	0,4
aholi mablag‘lari	2 779,2	97,7	7,9
kafolatlanmagan xorijiy kreditlar	6 046,4	301,9	17,3

2022- yil yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalariga ko‘ra, eng yuqori ko‘rsatkich (jami investitsiyalarning 39,3 %i) korxonalarning o‘z mablag‘lari hisobiga (13 740,7 mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi.

2022- yil yanvar-dekabr oylari uchun asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari



To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning o‘zlashtirilgan hajmi 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida 3 981,1 mlrd. so‘mni yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 58,9 %ni tashkil qildi. Bunda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha yuqori ko‘rsatkich Qibray (1 348,5 mlrd. so‘m) va Ohangaron tumanlariga (1 188,9 mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi.

Aksincha, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha past natijalar Bo‘ka (5,5 mlrd. so‘m) va Chinoz tumanlarida (0,1 mlrd. so‘m) kuzatildi.

Asosiy kapitalga kiritilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar

(mlrd. so‘m)

	Jami xorijiy investitsiya va kreditlar	*shu jumladan:*		To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya	Reinvestitsiya	Kafolatlanmagan kreditlar
		Investitsiya	Kredit			
Viloyat bo‘yicha	**11 514,0**	**4 120,2**	**7 393,8**	**3 981,1**	**123,2**	**6 046,4**
shaharlar:						
Nurafshon	436,0	60,8	375,2	60,8		174,5
Olmaliq	3 682,1	58,8	3 623,3	58,8		3 608,1
Angren	265,8	165,0	100,8	154,0		100,8
Bekobod	137,5	67,3	70,2	67,3		
Ohangaron	187,9	94,4	93,5	94,4		93,5
Chirchiq	587,4	236,5	350,9	235,4		84,5
Yangiyo‘l	108,8	78,7	30,1	17,7	61,1	
tumanlar:						
Oqqo‘rg‘on	0,2		0,2			
Ohangaron	1 246,0	1 189,1	56,9	1 188,9	0,2	56,5
Bekobod	37,0	34,7	2,3	34,7		
Bo‘stonliq	111,4	59,6	51,8	50,2		39,3
Bo‘ka	9,9	5,5	4,4	5,5		
Quyi Chirchiq	1 112,8	28,7	1 084,1	28,7		978,7
Zangiota	482,6	166,5	316,1	166,5		123,2
Yuqori Chirchq	203,9	72,5	131,4	72,5		128,7
Qibray	1 806,6	1 357,4	449,2	1 348,5	14,4	152,5
Parkent	30,7	0,6	30,1	0,6		28,9
Piskent	138,6	7,0	131,6	7,0		127,8
O‘rta Chirchiq	213,6	89,7	123,9	89,7		122,2
Chinoz	56,0	0,1	55,9	0,1	0,1	51,4
Yangiyo‘l	504,0	336,8	167,2	289,3	47,4	33,2
Toshkent	155,2	10,5	144,7	10,5		142,6

2022- yil yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi

	Jami mlrd. so'm	*foizda*	*Davlat*	*foizda*	*Nodavlat*	*foizda*
Jami, mlrd. so'm	**34 954,7**	**100,0**	**3 614,0**	**10,3**	**31 340,7**	**89,7**
shu jumladan: umumiy hajmga nisbatan %da						
qurilish-montaj ishlari	14 567,7	41,7	2 580,9	7,4	11 986,8	34,3
mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo'jalik jihozlar	17 443,3	49,9	842,8	2,4	16 600,5	47,5
boshqa harajatlar	2 943,7	8,4	190,3	0,5	2 753,4	7,9

2022- yil yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibining mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo'jalik jihozlar, yo'naltirilgan ulushi 49,9 %ni tashkil qilib, umumiy hajmga nisbatan yuqori ulushga ega bo'ldi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar
(umumiy hajmga nisbatan % hisobida)

(mlrd. so'm)

	yanvar-dekabr			
	2022- y.	*Umumiy hajmga nisbatan %da*	*2021- y.*	*Umumiy hajmga nisbatan %da*
Jami:	**34 954,7**	**100,0**	**28 113,6**	**100,0**
shu jumladan: iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha				
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 440,5	7,0	1 894,0	6,7
tog'-kon sanoati	9 423,5	27,0	5 098,4	18,1
qayta ishlash sanoati	10 160,6	29,1	5 097,8	18,1

	yanvar-dekabr			
	2022- y.	*Umumiy hajmga nisbatan %da*	*2021- y.*	*Umumiy hajmga nisbatan %da*
elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash	2 251,6	6,4	4 629,9	16,5
suv bilan ta’minlanish, kanalizatsiya, chiqindilarni yig‘ish va yo‘q qilish	556,0	1,6	222,2	0,8
qurilish	1 174,2	3,4	2 226,9	7,9
ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va motosikllarni ta’mirlash	807,3	2,3	798,0	2,8
tashish va saqlash	780,3	2,2	591,9	2,1
yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	259,6	0,7	141,2	0,5
aloqa va axborotlashtirish	330,9	0,9	106,2	0,4
moliya va sug‘urta faoliyati	94,0	0,3	60,8	0,2
ko‘chmas mulk bilan bog‘liq ishlar	200,6	0,6	521,3	1,9
malakaviy, ilmiy va texnikaviy faoliyat	484,8	1,4	952,2	3,4
ma’muriy va qo‘shimcha xizmatlar	220,5	0,6	301,8	1,1
davlat boshqaruvi va mudofaasi; majburiy ijtimoiy ta’minot	378,6	1,1	510,3	1,8
ta’lim	984,1	2,8	908,0	3,2
sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	314,5	0,9	449,8	1,6
san’at, ko‘ngil ochish va dam olish	345,1	1,0	513,7	1,8
uy-joy qurilishi	3 050,7	8,7	3 044,2	10,8
boshqa faoliyat turlari	697,3	2,0	45,0	0,3

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar va kreditlarni iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha
(umumiy hajmga nisbatan % hisobida)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ishlab chiqarish sanoatida – 10 160,6 mlrd. so‘m (jami investitsiyalar hajmida 29,1 %) tashkil etdi. Tog‘-kon sanoatida – 9 423,5 mlrd. so‘m (27,0 %), uy-joy qurilishida – 3 050,7 mlrd. so‘m (8,7 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 2 440,5 mlrd. so‘m (7,0 %), davlat boshqaruvi va mudofaasi majburiy ijtimoiy ta’minotida – 378,6 mlrd. so‘m (1,1 %), san’at, ko‘ngil ochish va dam olishda – 345,1 mlrd. so‘m (1,0 %), tashish va saqlashda – 780,3 mlrd. so‘m (2,2 %), suv bilan ta’minlanish, kanalizatsiya, chiqindilarni yig‘ish va yo‘q qilishda – 556,0 mlrd. so‘m (1,6 %), malakaviy, ilmiy va texnikaviy faoliyatda – 484,8 mlrd. so‘m (1,4 %), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda – 314,5 mlrd. so‘m (0,9 %), ta’limda – 984,1 mlrd. so‘m (2,8 %) hamda yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda – 259,6 mlrd. so‘m (0,7 %) investitsiyalar o‘zlashtirildi.

Ijtimoiy soha obyektlarini qurilishi

2022- yil yanvar-dekabr oylarida umumiy maydoni 1522,7 ming kv.m. bo‘lgan 6218 ta uy-joy, shundan, qishloq joylarida 1229,2 ming kv.m. bo‘lgan 4664 ta uy-joy foydalanishga topshirildi.

Qurilish faoliyati. 2022- yil yanvar-dekabr oylarida 12 143,8 mlrd. so‘mlik qurilish-pudrat ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 107,7 %ni tashkil etdi.

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 487,3 mlrd. so‘m qurilishishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilik shaklidagi tashkilotlar tomonidan esa 11656,5 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi mos ravishda 4,0 % va 96,0 % ni tashkil etdi.

Mulkchilik shakllari bo‘yicha qurilish tashkilotlarining o‘z kuchlari bilan bajargan qurilish ishlari taqsimoti

(umumiy hajmga nisbatan % hisobida)



Qurilish ishlari hajmining o‘sish sur’ati

(2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan, %da)



Xususan, yuqori o‘sish sur’atlari Toshkent (173,3 %) tumani, Yangiyo’l (141,9 %) shahar va Yuqori Chirchiq (134,7 %) tumanida kuzatildi.

Aksincha, eng past ko‘rsatkich Piskent (85,9 %) va Qibray (85,9 %) tumanlariga to‘g‘ri keldi.